

# BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI ILMIY AXBOROTI

9/2023

Научный вестник Бухарского государственного университета  
Scientific reports of Bukhara State University



9/2023



<b>Jumayeva Ch.I.</b>	Ba'zi to'rt o'lchamli Li algebralaring lokal ichki differensiallashlari	106
<b>Зарипов Г.Т.</b>	Технология производства напитков на основе составляющих природного характера	110
<b>Меражова Ш.Б</b>	Эквивалентность обратной задачи поставленной уравнению смешанного типа интегральному уравнению Фредгольма 1-рода	114
<b>Bazarova S.J.</b>	Elementary thermodynamics	120

### **TILSHUNOSLIK \*\*\* LINGUISTICS \*\*\* ЯЗЫКОЗНАНИЕ**

<b>Navruzova M.G.</b>	Tibbiy birliklarning folklor asarlaridagi genderologik tavsifi	127
<b>Raxmanov B.A.</b>	Surxondaryo etnodialektal xarakterdagi maqol va matallarning turlari hamda lingvomadaniy xususiyatlari	131
<b>Nazarova S.A.</b>	Turkiy tillarda shaxs tafsifining sintaktik ifodasi xususida	136
<b>Akramov I.I.</b>	An aphorism as an entire passage: mechanisms of structural-semantic organization	142
<b>Nabiyeva Sh.I.</b>	Formation and orthological genesis of the English literary language norms	148
<b>Saidova M.U.</b>	Ingliz adabiyotshunoslik lug'atlari xususida mulohazalar	152
<b>Umurova Kh. Kh.</b>	Linguoculturological analysis of axiological concepts of wedding rite in different cultures	158
<b>Жўраева Ю.Ф</b>	Ўзбек хотин-қизлар исмларида ой лексемасининг ўрни ва қўлланиши	162
<b>Vaxidova F.S</b>	Ziyorat turizmi terminlarining struktural qoliplari	167
<b>Kilichev B.E.</b>	Regionim – Buxoro toponimlarining bir guruhi	172
<b>Мейлиева М.О.</b>	Использование современных подходов в преподавании русского языка в условиях билингвизма: актуальные проблемы и рекомендации	176
<b>Каримова Г.Х.</b>	Лингвокультурологические особенности экклезионимов джизакской области	180
<b>Қаххорова Г.Ш.</b>	Юкламаларнинг ёрдамчи сўзлар билан вазифадошлиги	186

### **ADABIYOTSHUNOSLIK \*\*\* LITERARY CRITICISM \*\*\* ЛИТЕРАТУРОВЕДЕНИЕ**

<b>Latipova S.T.</b>	Tarixiy asarlarda Buxoroning hukmdor ayoli tavsifi	197
<b>Meliyev X.N.</b>	Gulbadan Beginning "Humoyunnomá" asari va tarjimalarida keltirilgan ruboiyning adabiy tahlili	203
<b>Тўҳсанов Қ.Р.</b>	Румий "Маснавий маънавий" манзумасининг аслият ва ўзбекча таржимасининг рақамларда берилиши	207
<b>Болтаева Г.ИІ.</b>	O'zbek adabiyotida ilk Muxammas	215
<b>Abdullayeva X.N.</b>	Ingliz hamda o'zbek ertaklarida g'aroyib safar motivi	219
<b>Habibova M.N.</b>	Description of the Orient in Lawrence's "Seven pillars of wisdom"	223
<b>Karamova Sh.L.</b>	Aruz – metaforik tafakkurning keng maydoni sifatida	228
<b>Karimova Sh.K.</b>	Zamonaviy ingliz va o'zbek she'riyatida tovush takrorlarining o'ziga xos jihatlari	232
<b>Muxtorova U.T.</b>	Mumtoz adabiyot namunalarida ilohiy motivlar va rivoyatlarning qo'llanilish tamoyillari	240
<b>Urazaliyeva M.G'.</b>	Maya Anjelu asarlarining adabiy tanqidchilar tomonidan tahlil qilinishi	245
<b>Xolova M.B.</b>	Badiiy matnda xushmuomalalik strategiyalarining voqelanishi	251
<b>Муртазаева Ф.Р.</b>	Внутренний мир персонажей в «женской прозе» английских и американских писательниц	258

## TIBBIY BIRLIKLARNING FOLKLOR ASARLARIDAGI GENDERLOGIK TAVSIFI

Navruzova Muyassar Gaybullayevna,  
Buxoro davlat universiteti  
Boshlang'ich ta'lif kafedrasi dotsenti,  
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
nmg0412@gmail.com

**Annotatsiya.** Maqolada xalqning "ayol homiy ruh" haqidagi mifologik qarashlari momo obrazining kelib chiqishiga asos bo'lganligi izohlanildi. Xalqning tasavvuricha, momolar ruhi ayollarga, ularning faoliyatida, sog'ligiga hamisha yor-u madadkor bo'ldi. Aniqrog'i, uning ildizi ruhlarga ishonchdan iborat animistik tasavvurlar, kult miflari bilan tutash sanaladi.

**Kalit so'zlar:** "ayol homiy ruh", momo, momo ruhlar, timsol, homiy ruhlar, sunnat to'yi.

## ГЕНДЕРОЛОГИЧЕСКОЕ ОПИСАНИЕ МЕДИЦИНСКИХ ЕДИНИЦ В ФОЛЬКЛОРНЫХ ПРОИЗВЕДЕНИЯХ

**Аннотация.** В статье поясняется, что в основу возникновения образа момо легли мифологические представления народа о "женском духе-хранительнице". По представлениям людей, дух матери всегда помогает женщинам в работе и здоровье. Точнее, его корни связаны с анимистическими представлениями и культовыми мифами, состоящими из веры в духов.

**Ключевые слова:** "женский дух-покровительница", момо, духи момо, символ, духи-покровители, обряд обрезания.

## GENDERLOGICAL DESCRIPTION OF MEDICAL UNITS IN FOLKLORE WORKS

**Abstract.** In the article, it was explained that the mythological views of the people about the "female guardian spirit" were the basis for the origin of the image of grandmother. According to people's imagination, the spirit of mothers always helps women in their work and health. More precisely, its roots are connected with animistic imaginations and cult myths consisting of belief in spirits.

**Key words:** "female guardian spirit", grandmother, grandmother spirits, symbol, patron spirits, circumcision wedding.

**Kirish.** O'zbek xalqi o'zining uzoq tarixi, ko'hna va qadimiy, boy va sermazmun milliy madaniyati bilan jahon tamadduniga ulkan hissa qo'shgan. O'tmis ajdodlarimizdan bizgacha yetib kelgan nomoddiy meros, ya'ni xalq og'zaki namunalari ham xalqimiz madaniyatining qadimiyligidan darak beradi.

Bugungi kun tadqiqotlari sirasida xalq og'zaki ijodi namunalarning leksikasi, frazeologiyasi, grammatikasi, dialektologiyasiga doir izlanishlarni kuzatish mumkin. Tilshunoslikda lingvofolkloristika deb nom olgan soha tobora rivojlanib bormoqda. Folklor tili va unda qo'llanuvchi lug'aviy birliklarning izohli lug'atlarini tuzishga e'tibor oshirilmoqda.

Jahon xalqlari og'zaki va yozma nutqida tibbiy birliklarning alohida o'rni bor. Insoniyat azaldan kasallik turlari, ularning xalqona muolajasini aniqlab, belgi-xususiyatlari ko'ra tasniflab kelmoqda. Ba'zan birliklar talqinida xalq dunyoqarashi, psixologiyasi, e'tiqodiy tushunchalari, mifopoetik tafakkuri, ularni nomlashda tabu va evfemizmlarga rioya qilinganligiga alohida e'tibor berilmuoqda. Natijada, har bir xalq tilida tibbiy birliklarning muayyan tizimi shakllanib, qadimiy ko'rinishlari folklor asarlari tilida saqlanib qolganki, ularning etnolingvistika, lingvofolkloristika, lingvopoetika, lingvokulturologiya jihatidan tadqiq etishga alohida ahamiyat qaratilmoqda.

**Asosiy qism.** O'rta Osiyo xalqlari orasida momo ruhlarning nomi juda ko'p. Xalq nazdida Momoyi Kalon – Katta momo barcha momo ruhlarning boshlig'i sanaladi. Boshqa ruhlar unga bo'ysunishi aytiladi.

**Yo'ichi momo** o'z ajdodlariga yo'lda va safarda homiylik qiluvchi momo ruhdir.

**Elchi momo** o'z elini qo'llab-quvvatlovchi, tiriklarga yordam ko'rsatuvchi momodir.

**Xabarbar momo** – xabar eltuvchi, Xabarbiyor momo esa xabar keltiruvchi, yuz berishi mumkin bo'lgan voqealardan oldindan ogoh etuvchi ruhdir. Odatda, folbinlik va baxshilik qiluvchilar uni o'zlariga

## LINGUISTICS

homiy deb bilganlar. Bu momo ruhlarning har to'rttalasi ham insonlarga ezgulik qiluvchi madadkor ruhlar sanaladi.

**To'q momo** nomiga tez-tez is chiqarilib, duysi fotiha o'qib turilgani, ya'ni tiriklar tomonidan vaqtida yo'qlanib, "oziqlantirib" borilgani tufayli o'z avlodlaridan minnatdor bo'lувчи ruhdır.

**Gung momo** – tirikligida gung, gapira olmaydigan bo'lib yashab o'tgan ayol ruhi. Aytishlaricha, ko'pincha ular shomon ayollarga homiylik ko'rsatarkan.

**Momoyi pushti** yoki momoyi merosi ajdod homiy ruhlardan biri bo'lib, shomonlik qiluvchining marhum ota-onasi, ajdodlari ruhi shu nom bilan yuritilgan. Bu dunyoni tark etgan ajdodlarining kasbidan, boyligidan foydalananadiganlar, odatda, shu momo ruhni homiy bilib, unga sig'ingan.

**Gumchi momo** yo'qolgan kishilarni va narsalarini topib berishda yordam beruvchi, izlab topishda yo'il ko'rsatuvchi homiy momo timsolidir. U folbin shomonlar sig'inib, madad so'raydigan homiy kuchdir. Ko'rinyaptiki, bu momo ruhlar, asosan, bajaradigan vazifasiga qarab nomlangan. Ba'zi momo ruhlar qo'nim topgan manzil-makoniga qarab nomlangani kuzatiladi. Jumladan,

Kul momo kul orasida,

Gul momo gullar, xususan, qizil atirgul orasida,

Suvchi momo suv havzalarida qo'nim topishi aytildi.

Bu momo ruhlar ehtiyoitsizlik qilgan odamga zarar yetkazishi mumkin. Agar odam kul to'kilgan joydan kechqurun o'tsa yoki u yerdan hojati uchun foydalansa, shuningdek, gul tagida uxlاب qolsa, momo ruhlardan zarar topishi uqtiriladi. Ammo Kul momo va Gul momo hammavaqt ham insonga zarar va ozor yetkazuvchi yovuz, raqib kuch sifatida talqin qilinmaydi. Chunki gul va kuldan o'rni kelganda ezgu maqsad yo'lida ham foydalanish mumkin. Masalan, lolagul, lolaqizg'aldoq, na'matak, atirgul, chuchmomo kabi bir qator gullardan inson salomatligi yo'lida foydalanishi ko'pchilikka ma'lum. Yoxud kuldan kinnani haydashda, ko'z og'rig'ini davolashda foydalanadilar. Uchuni momo, Hasud momo, Mechkay momo, Kinna momo, Ro'dapo momo va Shalpar momo kabilar ham insonlarga raqib bo'lувчи yovuz momolar qatoriga kiradi.

**Uchuni momo** noplak va bevaqt yurgan kishilarga yo'liqsa, uchintirib kasal qilishi aytildi. U ko'pincha o'z ajdodlariga munosib voris bo'lumanlarni jazolashi uqtiriladi.

**Hasud yoki Hasad momo** ham odamlar uchun yovuz, raqib ruhlardan biridir. U yaqin ajdodlarining xasisligi va beparvoligi oqibatida unutilib, och qoldirilgani uchun xavfli ruhga aylangan bo'ladi. Ko'pincha ular qurbanlik talab qiluvchi och arvoхlar [1] sifatida kezib yurishi aytildi. Jumladan,

**Mechkay momo** ham Hasad momo kabi och, yeb to'ymas yovuz ruhlardan biridir. Bu yovuz ruh, odatda, odamlarning tushida namoyon bo'lib, o'zi uchun qurbanlik berishga undar ekan. Agar tush ko'rgan kishi vaqtida unga atab qurbanlik marosimini o'tkazmasa, kasallikkha chalinishi, yo biror baxtsizlikka yo'liishi mumkinligi bildiriladi.

**Kinna momo** ruhi odamlarning qorin bo'shilig'iga joylashib olib, kuchli og'riq hosil qilishi, nigohi o'tkir odamlarga o'rashib, shu orqali atrofdagilarga zarar yetkazishi aytildi.

**Ro'dapo momo** juda ozg'in va kasal ayol qiyofasida zarar yetkazuvchi ruh sifatida tasavvur qilinadi. U, asosan, sog'lom va to'laqonli odamlarga zarar yetkazishga urinishi ta'kidlanadi.

**Shalpar momo** odamga yomon ta'sir ko'rsatib, uni kuchsizlantiruvchi, shalpaytirib, ojizlantirib qo'yuvchi ruh sifatida tasavvur qilinadi. Momo ruhlar nomi ranglar bilan ham bog'langan. Bunda momo ruhlarga bag'ishlangan marosimlarda yoqiladigan chiroq – nukchalardan chiqqan olov va uning tutuni rangi e'tiborga olingan. Ya'ni olov va tutunning oq, qora, qizil, sariq tusga kirishiga qarab momo ruhlar miqdori, xarakter-xususiyati, nomi belgilangan. **Ko'k momo, Qora momo va Sariq momo** yovuz ruhlar qatoriga kiradi. Ular ko'proq odamlarni kasal qilib, ozor yetkazishga urinishi aytildi.

**Sariqiz yoki Sariq momo** sariq sochli qiz yoki sariq tusli tovuq ko'rinishida ayollarga hujum qilishi aytildi. Oq momo esa insonga homiy ezgu ruhlardan biri sanaladi. U juda rahmdil va mehr-shafqatl, saxovatpesha sifatida talqin qilinadi. O.A.Suxareva tadqiqotlarda Xunxor momo (qon so'ruvchi), Shaloyim momo (yengiltak, tutqich bermas), Kashmiri momo (sehr-jodu qilishga aloqador afsunlarni o'rgatuvchi).

**Alamon momo** (olomon, ya'ni ko'pchilik bo'lib yurishuvchi momolar), momo-pari kabi momo obrazlarining nomlari uchraydi. Lekin Alamon momo ayollarga ozor, dard yetkazuvchi, odamga kutilmaganda tashlanib qoladigan maxluq ko'rinishidagi yovuz ruhlardan biri sifatida ham talqin qilinadi.

**Shaloyim momo** ko'pincha chaqaloqlarga ozor yetkazuvchi, ularni nobud qilishga intiluvchi yovuz kuch sifatida talqin etiladi.

**Xunxor momo** esa jonzotlarning, ayniqsa, insonlarning qonini so'rib ichuvchi momo sifatida ko'rsatiladi. Xunxor momo uchun ko'pincha uloq, qo'y tovuq kabilardan qon chiqarilib, u zarar yetkazgan bemor davolanadi. Aks holda Xunxor momo bemorning qonini so'rib, uni holsizlantirishi, halok etishi

## LINGUISTICS

mumkinligi aytildi. L.Xudoyqulovaning “O’zbek folklorida Momolar kulti” maqolasida Sariq momo, Qora momodan tashqari yana *Titti momo, Ochil momo, Gulsun momo, Yozil momo va Tuvgich* momo nomlari tilga olinadi. Muallifning ma’lumot keltirishicha, shu yetti momo obrazi xalq orasida homilador ayollarning asotiriy homisiyasi sifatida tasavvur qilinadi. O’zbek xalq allalarida Uyqu momo obrazi ham uchraydi.

**Uyqumomo** – uyqu ilohasi. Qaldirg’och nomi bilan bog’liq afsona va afsunlarda Go’zal momo nomi uchraydi. U ko’z og’rig’ining oldini oluvchi, unga shifo baxsh etuvchi homiy momo timsolidir. O’tmishda ko’z og’rig’ining kelib chiqishi va tarqalishi sabablarini bilmagan kishilar bu kasallikka aziz avliyolarning ta’siri yoxud yomon ruhlarning ta’siri deb qaraganlar. 2 Xalq qurg‘oqchilikda yomg‘ir so’rab, Guldur momo hamda Shaldir momoga murojaat qilgan.

Qurigan mish gul hovuz

Baliqlardan biror iz.

Guldur momo, kelsang-chi,

Shaldir momo, kelsang-chi,

Savobdir yemak baliq [2].

Ushbu qo’shiqda Guldur momo – momoqaldiroq, Shaldir momo – yomg‘ir tangrasi sifatida tilga olinayotir. Ma’lumki, yomg‘ir chaqirish marosimlarida Sust xotin, Chala xotin nomlariga ham murojaat qilinadi. M.Jo’rayev yana o’zbeklarning shamol kulti bilan bog’liq mifologik tasavvurlarining matriarxat davri e’tiqodiy qarashlariga aloqador alohida turkumi Yali momo yoki Yalala momo haqidagi inonchlar tizimini tashkil etishini ko’rsatib o’tadi. Demak, hozirlikcha momo ruhlarning 40 dan ortiq nomlari aniqlandiki, bu o’z navbatida, momo ruhlarga hamda Momo kultiga ishonch O’rta Osiyo xalqlari orasida bir muncha keng va muayyan yaxlit tizim ko’rinishida tarqalganligini bildiradi. Shunisi ham borki, xalq orasida bolani erkalash uchun aytildigan quyidagi qo’shiqda homiy momolarning yetmishdan ortiqligi ta’kidlangan:

Yetmish momong orqangdan

Bug’doy olib yugursin.

Momo ruhlarning nomi, soni bu darajada ko’p va rang-barang bo’lganligi uchun, odatda, ularni umumlashtirib “lashkar” deb atash xalq orasida va shomonlik qiluvchilar o’rtasida o’ziga xos an’anaga aylangan. Yovuz momo ruhlarga yo’liqish xalq orasida “ajina chalibdi”, “alvastiga yo’liqibdi”, “momolar tegishibdi”, “momolar ziyon beribdi”, “momolarning shamoli tegibdi” yoki “momolaring og’irlik tashlabdi” kabi iboralar bilan izohlanadi. Bu iboralarning har biri o’ziga xos ma’noga ega.

**Homiy momo** timsoli O’rta Osiyoda yashovchi xalqlar orasida turlicha nomlanadi. Qirg’izlarda ayollar va go’daklarning homiy momosi sifatida Umay ena ruhiga sig‘iniladi. “Umay” so’zi “ezgu ruh” tushunchasini bildiradi. Aslida “Uma” – qadimgi turkcha so’z bo’lib, “ona” deganidir. Folklorshunos A.Musaqulovning ta’kidlashicha, inson tanasidagi tug‘ma xollar ham Umayning izi hisoblangan. A.Bernshtam **Umay momoni ayol** jinsidagi mifologik mavjudot, oila o’chog’i va avlodlar davomiyligi homisiy bo’lgan, deb talqin qiladi. O’zbek va tojik xalqi orasida yordamchi, homiy momo ruhlar haqidagi qarashlar **Bibimushkulkushod va Bibiseshanba** kabi epik personajlar timsolida aks ettirilishi kuzatiladi. Momo ruhga ishonch va hurmat ta’sirida ayrim mifologik personajlarga “momo” so’zi qo’shib aytiganligi kuzatiladi. Jumladan, chaqmoq ruhi – Momo Qaldiriq, oy – Oymomo, birinchi ayol inson – Momo Havo, shamol tangrasi – **Chuy momo** deb yuritiladi. Momolarga e’tiqod ayol kishilarga atab qo’yladigan ismlarda ham seziladi. Ba’zi ismlarga ulug’vorlik baxsh etish ma’nosida momo so’zi qo’shib aytildi. B.Sarimsoqov “O’zbeklarda qadimgi davrlardan ruhlarga dualistik munosabatda bo’lish natijasida ularni Xizr, arvoh, momolar, parilar, chiltonlar, muakkillar, qirq qizlar, Bibimushkulkushod, Bibiseshanba kabi yaxshi; dev, alvasti, jin, ajina, suq kabi yomon ruhlarga ajratib kelinadi”, – deb yozadi. Ko’rinyaptiki, momo ruhlar ezgu va homiy ruhlar qatorida sanab ko’rsatilayotir. Darhaqiqat, ayrim kasalliklar nomining momo nomiga bog’lab aytishini kuzatish mumkin. Masalan, kishi badaniga qizilcha toshsa, bu kasallikning nomi “Qizamiq momo”, suvchechak toshsa – “Qora momo” deb yuritiladi. Bularning barchasi misolida momo ruhga nisbatan dualistik qarash shakllanganligi anglashiladi [5]. Momoni insu jins, ya’ni mifologik timsol sifatida, ko’pincha pari yoki alvasti, ajina ko’rinishida tasavvur qiladilar. Bunda momo shu mifologik timsollar ko’rinishida insonga zarar yetkazuvchi yovuz ruh deb qaraladi.

**Muhokamalar va natijalar.** Islom dini davrida ayol homiy kuchlar, ya’ni Momo kulti haqidagi qarashlar ayrim real shaxslarga singdirila boshlagani kuzatiladi. Jumladan, Anbar ona, Bibi Seshanba, Bibi Mushkulkusho, Bibi Ro’ipo’sh (niqobdagagi bibi), Bibi Hojatbaror, Bibi Fotimayu Zuhro, Bibi Xadichai Kubaro, Qizbibi, Bibi Maxsumayi pok, Bibi Shahrabonu kabilar shular qatoriga kiradi. Momo ruhlar o’zga, ko’zga ko’rinmaslar olami vakili sifatida bizning tilimizni tushunmaydi degan ma’noda ularga qarata boshqa tilda, masalan, o’zbeklar bo’lsa – tojik tilida, tojiklar bo’lsa – o’zbek tilida murojaat qilib, aytimlar aytganlar. Umuman aytganda, momolar ruhi ayollarga, ularning faoliyatida, shug’ullanadigan kasb-korlarida hamisha

## LINGUISTICS

yoru madadkor bo‘ladi. Momo kulti haqidagi qarashlar islomgacha shakllangan diniy-mifologik tushunchalarga borib taqaladi. Aniqrog‘i, uning ildizi ruhlarga ishonchdan iborat animistik tasavvurlar, kultmiiflari bilan tutashdir.

Ertaklardagi qon so‘rvuchi yoki bolalarni o‘g‘irlab ketuvchi maston kampir, yalmog‘iz kampir kabi momolar timsolining keltirilishi hamda ularga qarshi epik qahramonning kurashi bevosita yovuz momolar haqidagi qarashlar ta’sirida shakllangan deyish mumkin.

O‘zbek folklorida o‘g‘il bolalar sunnat to‘yi folklori ham mavjud. Xalqimizda o‘g‘il bolalarning “qo‘lini halollah”, ya‘ni sunnat qilish marosimining o‘ziga xos folklor an‘analari mavjud bo‘lgan. “Sunnat” so‘zi aslida arabcha bo‘lib, Payg‘ambarimiz bajargan va boshqalarga ham tavsiya qilgan amalladir. Bu marosim ko‘pgina joylarda “xatna to‘yi” deb ham ataladi. Zero, “xatna” atamasi arab tilidagi “kesmoq”, “isqartmoq” ma’nolarini anglatuvchi “xatnun” so‘zidan olinganligi uchun o‘g‘il bolalar jinsiy a’zosi uch qismi terisini kesish bilan bog‘liq marosim ham “xatna to‘yi” deb yuritiladi. Bolani xatna qilish an‘anasining tarixiy ildizlari ibtidoi jamoa davridagi sinov-initiatsiyalari, xususan, bolalarni bir yosh-jins mansubiyatidan boshqasiga o‘tkazish bilan bog‘liq qadimgi udumlargacha borib taqaladi. Xatna qilish odati qadimiy Misr, Indoneziya, Avstraliya, Afrika xalqlarida ham kuzatilgan. Sunnat qadimiy Bobilda yashagan somiy xalqlar o‘rtasida ham keng tarqalgan. Xatna O‘rta Osiyoda qadimdan mavjud bo‘lgan degan taxminlar bo‘lsa-da, biroq u islam dini kirib kelgandan (VIII asr)dan so‘ng keng tarqalgan. Bu marosim mamlakatimiz viloyatlarida “xatna to‘yi”, “sunnat to‘yi”, “ummatt qilmoq”, “huydo-huydo qilmoq”, “chuk to‘yi”, “to‘yi pisar”, “chuk buron”, “gula qildirish”, “kestirish”, “chukron to‘yi”, “o‘g‘il to‘yi”, “nevara to‘yi”, “qo‘l halollash to‘yi” kabi nomlar bilan ataladi.

**Xulosa.** O‘zbek folklori namunalari tilida tibbiy birliklarning sheva ko‘rinishlariga ham ko‘p duch kelinadi. Ular orqali o‘sha folklor namunasining qayerda yaratilgani va keng tarqalgani, qaysi hududdan yozib olinganini bilib olish imkonи paydo bo‘ladi. Xalq tilidagi tibbiy birliklar insonlarning yoshiga, jinsiga, kasallikning turiga, kechish davriga, og‘ir yoki yengillik holatiga qarab nomlanishi ayonlashadi.

### ADABIYOTLAR:

1. Муродов О. Шаманский обрядовый фольклор у таджиков средней части долины Зеравшана // Домусульманские верования и обряды в Средней Азии. – М.: “Наука”, 1975. – С.101-102. 185.
2. Худойқулова Л. Ўзбек фольклорида Момолар культи. – Ўзбек тили ва адабиёти. – 2007. – 4-сон. – Б.50-53.
3. Мирзаева С. Ўзбек халқ афсун-дуоларининг жанр хусусиятлари ва бадиияти. – Т.: “Истиқлол”, 2006. – Б.40- 41.
4. Petersen Marilyn. Treasury of Uzbek Legends and Lore. –Toshkent: Qatortol-Kamolot, 2000. – Б.142. (Мерилин Петерсен 1996-2000).
5. Жўраев М. Ёғдириши маросимлари // Ўзбек мавсумий маросим фольклори. – Т.: “Фан”, 2008. – Б.160- 205.
6. Сухарева О.А. Пережитки демонологии и шаманства у равнинных таджиков // Домусульманские верования и обряды в Средней Азии. – М.: “Наука”, 1975. – С.101.
7. Рустамов А. Сўз хусусида сўз. – Т.: “Ёш гвардия”, 1987. – Б.125.
8. Мусақулов А. Ўзбек халқ лирикаси. – Т.: “Фан”, 2010. – Б.186.
9. Берништам А. Социально-экономической строй Орхено-Енисейских тюрок VI-VIII веков: Восточнотюркской каганат и кыргизы. – М. – Л.: Изд-во АН СССР, 1946. – С.163.
10. Бегматов Э.А. Ўзбек исмлари. – Т.: “Қомуслар” Бош таҳририяти, 1991. – 208 б. Ўзбек фольклори очерклари. 3 томлик. 1-том. – Т.: “Фан”, 1988. – Б.173-187
11. Наврузова М. Г. (2020). Креативность педагога-условие инновационности его профессиональной деятельности. Вопросы науки и образования, (11 (95)), 109-111.
12. Navrozova M. G. (2021). Xalqona tibbiy birliklarda mano kochish usullari. Academic research in educational sciences, 2(CSPI conference 1), 1487-1491.
13. Gaynullaevna N. M. (2021). Fundamentals of medical termsformation in uzbek language. Middle European Scientific Bulletin, 12, 488-491.
14. Gaynullaevna N. M. Etymology of Uzbek Medical Terms. JournalNX, 7(06), 169-171.
15. Gaynullaevna N. M. (2021). Linguculturological properties of medical units of uzbek language. Journal of Contemporary Issues in Business & Government, 27(4).
16. Navruzova, M. (2023). Тиббий бирликлар тадқиқи. Центр научных публикаций (buxdu. uz), 28(28).